Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 94
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

QUVASOY HUDUDIDA YER-SUV MUNOSABATLARI: QO'QON XONLIGI AN'ANALARIDAN ROSSIYA MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATIGACHA

Sarvar Fayzillayevich Karimov*
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti
✉ karimov.sarvar.fayzullayevich@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqotda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida hozirgi Quvasoy hududiga kiruvchi qishloqlarida yer-suv munosabatlarining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda Qo'qon xonligi davrida mavjud bo'lgan davlat, xususiy va vaqf yerlari tizimi, ijara munosabatlari, sug'orish tarmoqlarining iqtisodiy ahamiyati hamda xiroj va tanobona kabi soliq turlarining yerdan foydalanish jarayoni bilan bog'liqligi yoritilgan. Shuningdek, Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati natijasida yer va suv munosabatlarining qayta tashkil etilishi, vaqf mulklarining davlat nazoratiga o'tkazilishi hamda mahalliy aholining an'anaviy yer huquqlarining cheklanishi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari Quvasoy hududidagi agrar munosabatlar evolyutsiyasini va ularning mintaqaning keyingi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sirini ochib beradi.

Kalit so'zlar

Quvasoy, yer-suv munosabatlari, Qo'qon xonligi, Marg'ilon bekligi, Isfayramsoy, Quvasoy soyi, vaqf mulklari, xiroj, tanobona, sug'orish tizimi, sarkor, mirob, mustamlakachilik siyosati.

DOI: 10.5281/zenodo.21743121

KIRISH

Farg'ona vodiysida yer va suv resurslari azaldan iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili hisoblangan. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida hozirgi Quvasoy shahri atrofida joylashgan Arsif, Qalacha, Valik, Sufon, Qo'chqorchi, Muyon, Polmon, Pakana va boshqa qishloqlarda yer-suv munosabatlari asosan Qo'qon xonligi davrida shakllangan an'anaviy qishloq xo'jaligi boshqaruv tizimi negizida rivojlangan. Rossiya imperiyasi hukmronligi o'rnatilganidan keyin ham mazkur munosabatlarning asosiy elementlari ma'lum darajada saqlanib qolgan bo'lsa-da, ular asta-sekin mustamlakachilik ma'muriyatining iqtisodiy va siyosiy manfaatlariga moslashtirib borildi.

Mazkur hududlarning iqtisodiy hayoti Isfayramsoy va Quvasoy suv tizimlariga tayangan bo'lib, sug'orish tarmoqlari dehqonchilik, soliq yig'ish va yerdan foydalanish munosabatlarining asosini tashkil etgan. Rossiya imperiyasi hukmronligi o'rnatilishi natijasida yer egaligi, vaqf mulklari va suvdan foydalanish tizimi qayta tashkil etildi. Bu jarayon mahalliy aholining an'anaviy yer huquqlarini cheklash, davlat nazoratini kuchaytirish va mustamlakachilik manfaatlariga mos iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qildi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida hozirgi Quvasoy hududidagi yer-suv munosabatlarining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish, shuningdek, Qo'qon xonligi qishloq xo'jaligi tizimi hamda Rossiya mustamlakachilik siyosatining ushbu jarayonga ta'sirini ochib berishdan iborat. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, xronologik va manbashunoslik usullaridan foydalanildi.

ASOSIY QISM

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida hozirgi Quvasoy hududiga to'g'ri keluvchi Arsif,

Qalacha, Valik, Sufon, Qo‘chqorchi, Muyon, Polmon, Pakana va boshqa qishloqlarida yer-suv munosabatlari Qo‘qon xonligi davrida shakllangan an’anaviy qishloq xo‘jaligi tizim asosida rivojlangan bo‘lib, mazkur hududlar ma’muriy jihatdan Marg‘ilon bekligi tarkibidagi Qo‘qon-qishloq va Avval volostlariga qaragan. Yerlar asosan davlat yerlari (mulki sultoniy yoki amlok), xususiy mulk va vaqf yerlariga bo‘lingan bo‘lib, ulardan foydalanish tizimi ijara, meros va vaqf munosabatlari orqali tartibga solingan. Davlat yerlaridan olinadigan daromadlar xon xazinasining asosiy manbalaridan biri hisoblangan [1; 136].

Xudoyorxon hukmronligi davrida yer-suv munosabatlarida ijara tizimi ustuvor ahamiyat kasb etdi. Yerlar xon va beklar tomonidan sarkorlarga biriktirilib, dehqonlar esa ular orqali yerdan foydalanish huquqiga ega bo‘lganlar. Sarkorlar nafaqat soliq yig‘uvchi, balki mahalliy xo‘jalik hayotini tashkil etuvchi va suv taqsimotini nazorat qiluvchi ma’muriy shaxs sifatida ham faoliyat yuritgan [2; 93]. Manbalarda Avval, Sufon, Valik, Tomosho va Log‘on qishloqlaridan Muhammad Fozil sarkor tomonidan 20 930 choyrak don mahsuloti miqdorida xiroj yig‘ilgani qayd etilgan bo‘lib, bu 138,5 ming tangaga teng bo‘lgan [3; 111]. Shuningdek, Juy Arsif, Juy Qo‘chqorchi va Juy Polmon kabi sug‘orish tarmoqlari atrofidagi yerlarning ijaraga berilishi mazkur hududlarda suv resurslari bilan bog‘liq yerlarning yuqori iqtisodiy qiymatga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Masalan:

- Juyi Arsif — 400 choyrak xiroj, ijarachi Ishonto‘ra Askbadi;
- Juyi Qo‘chqorchi — 300 choyrak xiroj, ijarachi Eshonxo‘ja;
- Jo‘yi Langar —500 choyrak xiroj, ijarachi Saidxon to‘ra xudoyichiga;
- Juyi Polmon — 500 choyrak xiroj, yetti kishiga ijaraga berilgan [3; 110-112].

Quvasoy hududidagi qishloqlar iqtisodiyoti to‘liq ravishda Isfayramsoy va Quvasoy suv tizimlariga tayangan holda rivojlangan. Sug‘orish tarmoqlari orqali shakllangan agrar xo‘jalik g‘allachilikka ixtisoslashgan bo‘lib, XIX asr oxirida bug‘doy deyarli barcha qishloqlarda yetakchi ekin sifatida yetishtirilgan. 1899 yilgi yer-soliq ma’lumotlariga ko‘ra, Arsifda 254,7 desyatina, Muyonda 254 desyatina, Polmonda 226,8 desyatina va Qo‘chqorchida 204 desyatina maydon bug‘doy ekiniga ajratilgan. Shu bilan birga, Muyon va Arsif qishloqlarida paxtachilikning rivojlana boshlagani kuzatiladi. Masalan, Arsifda 96,9 desyatina, Muyonda esa 54,2 desyatina yerda paxta yetishtirilgan. Beda maydonlarining mavjudligi esa chorvachilik uchun ozuqa bazasini shakllantirgan [4; 18, 30].

Rossiya imperiyasi hukmronligi o‘rnatilgandan keyin yer-suv munosabatlari mustamlakachilik manfaatlariga mos ravishda qayta tashkil etildi. 1871–1873 yillarda Kaufman komissiyasi tomonidan yerlarning asosiy qismi davlat mulki deb e’lon qilinib, mahalliy aholining an’anaviy yer huquqlari cheklandi. 1886 yilgi Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom esa yerlarni xususiy mulk sifatida rasmiylashtirish jarayonini tezlashtirib, savdogar va sudxo‘r qatlamning kuchayishiga olib keldi. Natijada qarzdor dehqonlar o‘z yerlaridan mahrum bo‘lib, chorikorlik munosabatlari kengaydi [5; 39-46].

Shuningdek, Rossiya imperiyasi ma’muriyati vaqf mulklarini nazorat qilishni mustamlakachilik siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgiladi. K.P. Kaufman rahbarligidagi Turkiston general-gubernatorligi vaqf yerlarini inventarizatsiya qilish, ularning huquqiy asoslarini qayta ko‘rib chiqish hamda vaqf daromadlarini davlat nazoratiga olish orqali mahalliy diniy muassasalarning iqtisodiy mustaqilligini cheklashga intildi [6; 251-252]. Mazkur siyosat orqali imperiya ma’muriyati nafaqat yer resurslari ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirishni, balki mahalliy diniy elitaning ijtimoiy va siyosiy ta’sirini ham cheklashni maqsad qilgan.

Rossiya imperiyasi ma’muriyati tomonidan vaqf yerlarini qayta ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonida ko‘plab vaqf mulklari huquqiy asoslari yetarli emas degan bahona bilan haqiqiy vaqf maqomidan mahrum qilindi. Natijada ular davlat tasarrufiga o‘tkazilib, davlat yer solig‘i solinadigan yerlar qatoriga kiritildi [7; 18].

Farg‘ona viloyatida Yer-soliq komissiyasi tomonidan amalga oshirilgan tekshiruvlar ushbu siyosatning amaliy ifodasi bo‘ldi. Komissiya ixtiyoriga jami 212 ta vaqf hujjati taqdim etilgan bo‘lsa, yana 1219 ta hujjat xon muhri yoki rasmiy yorliqlar mavjud emasligi sababli huquqiy jihatdan haqiqiy deb topilmagan. Tekshiruv natijasida 134 ta mustaqil vaqf mulki ajratilgan va ular bo‘yicha alohida soliq hisob-kitoblari yuritilgan [4; 82].

Marg‘ilon uyezdi tarkibidagi Qo‘qon-qishloq va Avval volostlarida, ya’ni hozirgi Quvasoy hududida joylashgan qishloqlarda vaqf mulklarining keng tarqalganligi kuzatiladi. Qo‘qon-qishloq volostida jami 1945 desyatina yerni qamrab olgan 5 ta vaqf mulki mavjud bo‘lgan bo‘lsa, Avval volostida 28 ta vaqf mulkining umumiy maydoni 2449 desyatinani tashkil etgan [4; 17,21]. Xususan, Pastki Valik qishlog‘ida Marg‘ilon shahridagi

Domulla Abdukarim Oxun Xalifa madrasasi ixtiyorida 6 desyatina, Sufon qishlog‘ida esa shu madrasaga tegishli yana 9 desyatina; Qo‘chqorchi qishlog‘ida Hasanhoji qozikalon madrasasiga tegishli 19 desyatina, Pakana qishlog‘ida Sulton Murodbek qorixonasiga tegishli 69 desyatina, Pakana qaqir qishlog‘ida Domulla Tursunmuhammad Oxun madrasasiga tegishli 74 desyatina hamda Muyon qishlog‘ida Abdukarim xalifa oxun madrasasiga tegishli 37 desyatina va Safilto‘da qorixonasiga tegishli 45 desyatina vaqf yerlari qayd etilgan [4]. Yuqorida keltirib o‘tilgan ma’lumotlardan hozirgi Quvasoy hududida joylashgan qishloqlarning Marg‘ilon shahridagi yirik diniy-ma’rifiy muassasalar bilan mustahkam iqtisodiy aloqada bo‘lganini ko‘rsatadi. Biroq Rossiya imperiyasi ma’muriyati tomonidan amalga oshirilgan mustamlakachilik siyosati natijasida vaqf yerlari bosqichma-bosqich davlat nazoratiga o‘tkazilib, mahalliy diniy muassasalarning iqtisodiy mustaqilligi sezilarli darajada cheklab qo‘yildi.

XIX asrda Qo‘qon xonligi tarkibidagi Marg‘ilon bekligi va uning Qo‘qon-qishloq hamda Avval volostlari hududida joylashgan, hozirgi Quvasoy atrofidagi Arsif, Qalacha, Valik, Sufon, Qo‘chqorchi, Muyon, Pakana va Polmon kabi qishloqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti yer-suv munosabatlari va soliq tizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Mazkur hududlarda dehqonchilikning rivojlanishi, avvalo, Isfayramsoy va Quvasoy havzalaridan tarqalgan Juy Arsif, Juy Sufon, Juy Muyon, Juy Qo‘chqorchi va Juy Log‘on kabi sug‘orish tarmoqlari faoliyatiga tayangan bo‘lib, ushbu kanallar nafaqat qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining, balki yerlarni hisobga olish va soliq undirish tizimining ham asosiy elementi hisoblangan [8; 104].

Qo‘qon xonligida davlat daromadining asosiy qismi dehqonchilikdan olingan xiroj va tanobona soliqlari hisobiga shakllangan. A.L. Kun ma’lumotlariga ko‘ra, xonlikda 30 dan ortiq turli soliq turlari mavjud bo‘lgan bo‘lib, ularning eng muhimi hosildan undiriladigan xiroj solig‘i edi [9; 7-10]. Xiroj yig‘ish vazifasi sarkorlar va ularga bo‘ysunuvchi amaldorlar zimmasiga yuklatilgan, ular esa miroblar yordamida yerlar va hosil hajmini hisobga olib borganlar [10; 127]. Xususan, Xudoyorxon davrida Avval va Qo‘qon-qishloq volostlaridan yig‘ilgan xiroj davlat xazinasini ta’minlashda muhim o‘rin tutgan [8; 110-112].

Soliq tizimida yer maydonlarining o‘lchami va ixtisoslashuvi ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Yerlar tanob hisobida baholanib, bog‘lar, uzumzorlar, polizlar va bedazorlardan tanobona solig‘i undirilgan [11; 17]. Arxiv hujjatlarida Quvasoy, Juy Muyon, Juy Xo‘jagon va Juy Nayman kabi sug‘orish tarmoqlari asosida yerlarni hisobga olish amaliyoti qayd etilgan bo‘lib, bu holat soliq siyosati suv resurslari bilan bevosita bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi [8; 142].

Polizchilik ham xonlik qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, qovun, tarvuz, sabzi, piyoz, bodring va qovoq kabi ekinlar alohida hisobga olingan. Manbalarda Avval, Muyon, Sufon, Pakana va Ayritom qishloqlarida qovunzorlar, Arsif, Qalacha hamda Juy Qo‘chqorchi hududlarida qovun va tarvuz maydonlari, Log‘on, Qalacha va Navkandda esa polizchilik yerlari qayd etilgan. Shuningdek, yerning ixtisoslashuvi o‘zgarganda, masalan, bedazor o‘rniga qovun yoki sabzavot ekilganda tanobona solig‘i qayta hisoblangan [8; 161-166]. Bu holat soliq siyosati yer maydoniga emas, balki undan olinadigan iqtisodiy samaraga qarab belgilanganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, Qo‘qon xonligida ayrim ijtimoiy qatlamlarga soliq imtiyozlari ham berilgan. Diniy arboblar, saroy amaldorlari va harbiy xizmat egalari ayrim hollarda tanobona solig‘ini to‘lashdan qisman yoki to‘liq ozod qilinganlar [11; 20]. Xususan, Arsif, Valik, Qo‘chqorchi va Polmon qishloqlarida harbiy xizmatchilarga tegishli bedazor va qovunzorlar uchun soliq imtiyozlari joriy etilgani arxiv materiallarida aks etgan [8; 221-269]. Bu imtiyozlar davlatning harbiy xizmatni rag‘batlantirish va ijtimoiy tayanch qatlamlarni iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash siyosati bilan bog‘liq edi.

Umuman olganda, XIX asrda Quvasoy hududiga kiruvchi qishloqlarda yer-suv munosabatlari, sug‘orish tarmoqlari va soliq tizimi o‘zaro bog‘liq holda faoliyat yuritgan bo‘lib, ular nafaqat mahalliy qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini, balki Qo‘qon xonligi davlat moliyasi va ma’muriy boshqaruvining barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida hozirgi Quvasoy hududiga kiruvchi qishloqlarda yer-suv munosabatlari Qo‘qon xonligi davrida shakllangan an’anaviy qishloq

xo‘jaligi tizimi hamda Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati ta’sirida rivojlangan. Yer egaligi shakllari, sug‘orish tarmoqlari va soliq tizimi o‘zaro bog‘liq holda hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilab bergan.

Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilgan yer siyosati an’anaviy yer munosabatlarining o‘zgarishiga, davlat nazoratining kuchayishiga hamda mahalliy aholi orasida yersizlanish va ijtimoiy tabaqalanish jarayonlarining chuqurlashuviga olib kelgan. Shu bilan birga, Isfayramsoy va Quvasoy suv tizimlari asosida shakllangan sug‘orish tarmoqlari qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy tayanchi bo‘lib qolgan.

Umuman olganda, Quvasoy hududidagi yer-suv munosabatlari tarixi mintaqa iqtisodiy taraqqiyoti, aholi turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirgan muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu tarixiy tajriba zamonaviy sharoitda yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, ularni samarali boshqarish va hududiy barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Зелькина Е. Земельная реформа Средней Азии. Москва, 1928. С.136 / Маматкулов Д.А. История сельского хозяйства Кокандского ханства (1709–1876 гг.). Худжанд, 2025. С.110–111;

2. Турсунов Б.Р. История политической жизни Кокандского ханства (с 1709 г. до первой половины 50-х годов XIX в.). Диссертация. Худжанд-2022. С.93;

3. Набиев Р.Н., Из истории Кокандского ханства (Феодальное хозяйство Худояр-хана), Издательство «Фан» Узбекской ССР, Ташкент-1973, С.111;

4. Геппенер С.А. Материалы для статистического описания Ферганской области. Маргеленский уезд. Новый Маргелан, 1899. С.18, 30;

5. Кастельская З.Д. Из истории Туркестанского края (1965-1917). Москва: Наука-1980, стр-39-46;

6. Кауфман К.П. Проект всеподданнейшего отчета... СПб., 1885. – С. 251–252;

7. Qurbonova N.N. Chorizmning Turkistondagi agrar siyosati va unga qarshi kurash (Farg‘ona viloyati misolida). Dissertatsiya Avtoreferati. Toshkent, 2011. – B. 18;

8. Троицкая Л.А. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. Москва: Наука, 1968. – Б.104;

9. Кун А. Очерк Кокандского ханства. // Известия Императорского Русского географического общества. – 1876. – Т. XII. Отд, 2. – С. 7-10;

10. Bobobekov H.N. Qo‘qon tarixi. Toshkent: Fan, 1996. – B.127;

11. Xatamova Z.N. Qo‘qon xonligida soliq tizimi. Dissertatsiya Avtoreferati. Farg‘ona. 2022. – B.17.